

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI  
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA  
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYA**

**Toshkent – 2024**

<b>Normurodova S.B., Shodmonov R.G'.</b> Til va marketing .....	166
<b>Odilova D.O., Shodmonov R.G'</b> . East asia counturies languages and cultures .	171
<b>Nabiyeva N.A., Shodmonov R.G'</b> . Til o'qitish usullari; o'rganilayotgan tillarni o'qitish uchun qo'llaniladigan usullar; til o'rganishning foydali tomonlari.....	176
<b>Narzullayeva A.Sh., Shodmonov R.G'</b> . Onlayn til o'rganish platformalari .....	180
<b>Junaydullaxonova M.A., Shodmonov R.G'</b> . Kitobxonlik va uning mohiyatini anglash .....	184
<b>Yaxshiboyeva M.B., Shodmonov R.G'</b> . Dunyo tillarining soni va turkiy til .....	189

## II SHUBA

<b>Абдалов А.Б.</b> Роль развития рынка ценных бумаг в дальнейшем повышении инвестиционной привлекательности страны .....	193
<b>Saidova I.X.</b> Investitsion muhit va uni belgilovchi omillar (kambag 'allik darajasi va o'zbekiston sharoitida unga ta'sir qiluvchi omillar.) .....	199
<b>Sunnatullayeva M.G'</b> . Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar - xalq kelajagi uchun poydevor masalalari.....	205
<b>Kenjayev N.</b> Temuriyzoda shohruh mirzo hukumronligi davrida temuriylar sultanatida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha tabobat maktablarining faoliyati.....	208
<b>Атаджанова А.У.</b> Определить концентрированной системы в составе чёрный смородины выращиваемой в хорезмской области.....	211
<b>Mohinur Sh.Sh., Shodmonov R.G'</b> . Alovida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limning o'rni .....	213
<b>Sobirjonova D., Shodmonov R.G'</b> . Koxlear implant bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar .....	218
<b>Sayfullayeva F., Shodmonov R.G'</b> . Bolalardagi senzetiv davr va nutq rivojlanishi .....	222
<b>Xamidullayeva M.J., Shodmonov R.G'</b> . Maxsus pedagogika va uning bo'limlari .....	226
<b>Alieva F., Shodmonov R.G'</b> . Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar .....	230
<b>Qurbanova K.A., Shodmonov R.G'</b> . Bolalarda musiqani rivojlantirish .....	234
<b>Komilova R.D., Shodmonov R.G'</b> . Harakat tayanch a'zolarida buzilish bo'lgan bolalar .....	237
<b>Turlibekova O., Shodmonov R.G'</b> . Aqli zaif tushunchasi .....	242
<b>Abdugafurova A., Shodmonov R.G'</b> . Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar....	247
<b>Zaynidinova M.Sh., Shodmonov R.G'</b> . Daun sindromli bolalar .....	251

# **RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR**

**Abdugafurova Aziza<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti  
Maxsus pedagogika(logopediya)  
1-kurs 1-MP-23 guruh talabasi  
[abdugafurovaaziza6@gmail.com](mailto:abdugafurovaaziza6@gmail.com)

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)

**Annotatsiya:** Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida mamlakatimiz defektologlari ishlarida ham bu masalaning turli tomonlari e'tiborga olinadi. Bunday orqada qolishning asosiy sabablariga bosh miyaning minimal, yuzaki, yengil zararlanishi, tug'ilish vaqtidagi, homila davrida yoki go'dakning ilk yoshidagi zararlanishlari kiradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar oliv nerv faoliyatları neyrodinamikasining yaxshi rivojlanmaganligidan darak beradi. Bunday holat normal bolalarda ilk yoshlarida, yoki bog'cha yoshlariga to'g'ri keladi. Keyingi izchil ruhiy tekshirishlarda faqatgina RRS bolalarning umumiyligini xususiyatlarini o'rganib qolmasdan, balki ularning bilish faoliyatları ham tekshirilgan. Bunday tekshirishlar defektologiya ilmiy-tekshirish institutidagina bo'lib qolmasdan, boshqa qator ilmiy muassasalar tomonidan ham amalga oshirildi. Bu ishlarda RRS bolalarning idrok, xotira, tafakkur, nutq, diqqat hamda ularning aqliy ish qobiliyatları o'rganilgan. RRS bolalarning shaxsiy xislatlarini o'rganish nisbatan yaqindan boshlandi. RRS bolalarda bosh miya, peshona qismlar rivojlanishining orqada qolishi, buning natijasida ularning hissiyorot-iroda sohalarining yetarli shakllanmaganligi aniqlangan bo'lsada, mukammal emas edi. Bular orasida ko'rish-harakat, eshitish-harakat va ko'rish eshitishning bog'liqligi ham yaxshi rivojlanmaydi. Bu esa o'qish va yozish malakalarining kech yuzaga chiqishiga olib keladi. Bu bog'liqliklar, rivojlanishidagi kamchiliklar V.I.Nasonova (1979 y.) tomonidan juda yaxshi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ruhiy rivojlanishlinish, birlamchi intellekt, psixoklinik, idrok, tafakkur xususiyatlari, konstituotsanal, samotagen, psihogen, serebral, ruhan sust. RRS.

**Kirish.** RRSning bolalar orasida qanchalik tarqalganligini turlicha belgilaydilar<sup>43</sup>. Bundan tashqari, RRS bolalarning miqdori ruhiy rivojlanishda orqada qolishning tabiatga ham bog'liqidir. Ruhiy rivojlanishning susayishi muammosi bizda dastlab 1960 yillar oxiri va 1970 yil boshlarida o'rganila boshlandi. 1979 yillargacha bunday bolalar ruhiy rivojlanishining susayishi vaqtinchalik, o'tib ketadigan holat deb hisoblangan.

<sup>43</sup> Ruhiy rivojlanishida sustlashgan bolalar 36

Bir qator tekshirishlar M.S. Pevzner, K.S. Lebedinskaya, V.I. Lubovskiy ruhiy rivojlanishining susayishi nisbatan turg'un xarakter kasb etishni ko'rsatadi. K.S. Lebedinskayaning 1980 yildagi ma'lumotlariga ko'ra, ommaviy maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5,8 % ni ruhiy rivojlanishi susaygan (RRS) bolalar tashkil etgan.

Bizga ma'lumki, maktab yoshidagi o'quvchilar uchun asosiy faoliyat o'qish va o'yindir. O'qish faoliyatida muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, doimo o'zining yomon o'zlashtirishini anglashi natijasida, RRS o'quvchilarning shaxsi va xulq-atvorida salbiy hislatlar shakllana boshlaydi, bu esa ta'lim-tarbiya jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'quvchilar o'zlarining ruhiy, jismoniy xususiyatlariga ko'ra, ommaviy maktab barnomasini, ommaviy maktab sharoitida yetarlicha o'zlashtira olmaydilar. Bu toifadagi bolalarga nisbatan e'tiborning kuchayishi maktablardagi o'zlashtirmaslik masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ruhan sust rivojlanganlikni "Klinik va Psixoloik" jihatdan quyidagi hillarga bo'linadi



Rivojlanishdagi orqada qolish o'z navbatida aqliy funksiyalar jarayon, malaka, ko'nikmalar ning ham kechikib shakllanishiga sabab bo'ladi. "Birlamchi intellekt saqlangan" deganda, bevosita aqli zaiflarga nisbatan, RRS bolalar diagnostik metodikalarni bajarish vaqtlaridagi yaxshi natijalar ko'rsatishlari nazarda tutiladi. RRS bolalarning bunday yaxshi natijalarga erishishlari, ularda aqli zaif bolalarga nisbatan, ma'lum darajada bilimlar borligidan darak beradi.

RRS bolalarda "Birlamchi intellekt saqlangan" degan fikr ham atamashunoslik, ham amaliy tomondan tanqidiy holdir. Intellekt murakkab ruhiy jarayon bo'lganligi sababli, yo saqlangan bo'ladi, yoki pasaygan bo'ladi. Bu fikr ba'zi bir chet el testologlarining fikrlariga to'g'ri keladi. Ayniqsa, bu fikrlar L.Termen (1916 y.) ishlarida o'z ifodasini topgan.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning barchasida diqqatning yetarli rivojlanmaganligini ko'rish mumkin. G.I. Jarenkovaning ko'rsatshicha, diqqatning

yeterli rivojlanmaganligi quyidagicha ifodalanadi: –ma'lum bir faoliyatning dastlabki boshlanish bosqichida diqqatning kuchliligi va ma'lum vaqtdan so'ng pasayib ketishi; –diqqatning kuchliligi faoliyat boshlangandan keyin ma'lum vaqt o'tgach yuzaga kelishi; –diqqat kuchining muntazam ravishda kuchayib va susayib turishi kuzatiladi.

Tekshirishlarning ko'rsatishicha, RRS bolalarda aqliy jarayonlardan: taqqoslash, umumlashtirish, tahlil yeterli darajada shakllanmagan ekan. Bu jarayonlar aqliy faoliyatning asosiy bazasini tashkil etadi. RRS bolalarga aqli zaif bolalarga nisbatan yuqori darajadagi o'rjanuvchanlik xos belgilardan biridir. Shu sababli RRS bolalar rivojlanishida potensial imkoniyatlar, aqli zaif bolalardan bir muncha yuqoridir.

Maktab ta'limiga ruhiy jihatdan tayyor bo'lmaslik quyidagicha namoyon bo'ladi:

- 1) tashqi olam haqidagi tasavvur va bilimlarning yetarli emasligida;
- 2) aqliy jarayonlar, malaka va harakatlar yetishmasligida;
- 3) nutq rivojlanishining orqada qolishida;
- 4) ma'lum qiziqish va motivlarda namoyon bo'ladigan bilish qiziqishlarining chegaralanganligida;
- 5) o'z hulqlarini idora eta olmasliklarida ko'zga tashlanadi

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ruhiy xususiyatlariiga oid qator chet el olimlarining, hamda rus olimi akademik V.I.Lubovskiy rahbarligidagi olimlar tomonidan qilingan va qilinayotgan ishlarni ko'rsatish mumkin. Ruhiy rivojlanishi susaygan o'quvchilarning oliy asab faoliyatları quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilish qiziqishlarining chegaralanganligida. V.I.Lubovskiy 1972.

Bunga: – asosiy asab jarayonlarining kuchsizligi, tormozlovchi shartli bog'lanishlarning sekinligi, asab jarayonlarining tez charchashi va toliqishi; – asab jarayonlarining keng iradiatsiyasi markaziy nerv sistemasida qo'zg'alish jarayonining keng tarqalishi; – asab jarayonlarining inertligi bo'shligi. Yuqorida aytib o'tilgan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar asab sistemasining o'ziga xos xususiyatlari ma'lum darajada aqli zaiflarga ham xosdir. Ammo, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalardagi bunday holatlar aqli zaif bolalardagidek keskin ifodalangan bo'lmaydi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning idroki quyidagicha xarakterli xususiyatlarga ega.

1-Sezgi organlari orqali olingan ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishslash tezligi past bo'ladi. Shu sababli ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ma'lum barnoma materialini o'zlashtirish uchun ko'p vaqt sarf qiladilar. Ammo aqli zaif bolalardan bir muncha farq qilib, normal tengdoshlari o'zlashtirgan materialni to'la o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2- Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar eshitish, taktil, ko'rish idroklarining nozik shakllari yeterli rivojlanmagan bo'ladi. Shu sababli oraliq tovushlarni va ranglarni normal tengdoshlaridek farqlay olmaydilar.

3- Narsa va buyumlarning fazodagi joylashish munosabatlarini idrok etishlari yetarli bo'lmaydi. Buyumlarning birbiriga nisbatan oldida, yonida, orqasida kabi tushunchalarni yetarli tushunib yetmaydilar.

4- Idrok etayotgan obyekt, narsa va buyumlar sonining ortishi, ko'payishi, idrok etilayotgan vazifa murakkabligining ortishi, o'sishi, bir vaqtning o'zida bir nechta taassurotlarni idrok etish zaruriyati yuzaga kelishi natijasida bunday bolalar idrokning birmuncha yomonlashishiga olib keladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar idrokning yetarli rivojlanmaganligi asosida markaziy asab sistemasidagi analizatorlar orasidagi munosabatlarning buzilishi yotadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tafakkuriga oid ilmiy izlanishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bunday bolalar tafakkurining quyidagi xususiyatlari mavjud:  
1.So'z – mantiq tafakkur turining quyi darajadaligi bilan, nisbatan saqlangan ko'rgazma – obraz va ko'rgazma – harakat tafakkur turlariga ega.

2.Bilish jarayonlarining yaqqol sezilib turadigan notejis rivojlanganligi.  
3.Intellektual faoliyatlarning maqsadga muvofiqligining bir muncha buzilganligi bilan xarakterlanadi.

4.Tafakkurning inertligi, bo'shligi, bir xil xarakterlarga moyilligi, tahlil-tavsif jarayonlarining yaxshi shakllanmaganligi ko'rindi. Bunday xususiyatlarni aqli zaif o'quvchilarda birmuncha chuqurroq xarakterga ega bo'ladi.


5.Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy masalalarni yechish vaqtlarida ko'rsatilgan yordamdan, aqli zaif bolalarga qaraganda unumliroq foydalanadilar.

6.Intellektual aktivlikning yetarli emasligi.

7.Berilgan ko'rsatmani tushuna olish, ammo ko'rsatma talablari asosida faoliyatni to'g'ri tashkil eta olmaslik.

8.Intellektual vazifalarni yechish vaqtida zarur hissiyot – irodaning yetishmasligi, topshiriqlarni yechishning aktiv yo'llarini qidirib topa olmaslik.

9.Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda aqliy ish qilish qobiliyatları normal tengdoshlariga qaraganda birmuncha pasaygan bo'ladi.



**Xulosa.** Klinik va ruhiy-pedagogik tekshirishlarining ko'rsatishicha, xotira buzilishlari RRS bolalarning xarakterli belgilardan biri ekan. Xotira jarayonlarining buzilishi murakkab va o'ziga xos ko'rinishiga ega. RRS bolalar xotirasining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ular xotirasining ayrim tomonlari ko'proq, ayrim tomonlari kamroq buzilganligidir. Xotira jarayonlari unumdorligining pasayishi, RRS bolalarda o'z faoliyatlarini unumli tashkil qila olmaslik, eslab qolishning samarali usullarini o'llay olmaslik natijasida kelib chiqadi.

Klinik va ruhiy-pedagogik tekshirishlarining ko'rsatishicha, xotira buzilishlari RRS bolalarning xarakterli belgilardan biri ekan. Xotira jarayonlarining buzilishi murakkab va o'ziga xos ko'rinishiga ega. RRS bolalar xotirasining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ular xotirasining ayrim tomonlari ko'proq, ayrim tomonlari kamroq buzilganligidir. Xotira jarayonlari unumdorligining pasayishi, RRS bolalarda o'z faoliyatlarini unumli tashkil qila olmaslik, eslab qolishning samarali usullarini o'llay olmaslik natijasida kelib chiqadi.

Ularning aksariyat 7 yoshda ham maktabga bormasdan bog'chada qolishni hohlaydi. O'qishga bo'lgan qiziqishlarga nisbatan, o'yinga bo'lgan qiziqishlari ustunlik qiladi. O'yinga bo'lgan qiziqishining ustunlik qilganligi va o'qishda doimo, muntazam muvaffaqiyatsizlikka uchrab turishi natijasida bu bolalarda o'qishga nisbatan salbiy munosabat shakllana boradi. O'z-o'ziga ishonmaslik xislari shakllanadi. O'zlarining qobiliyatlarini baholashda haddan tashqari past baholash hollari kuzatiladi. Bu esa, ular shaxsining shakllanib yetishmasligi, hissiyot – iroda faoliyatlarida o'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan bilish ehtiyojlarining shakllanmaganligida o'z ifodasini topadi.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Slayd Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar. Zulfizar Azimbayevna Toshkent
2. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar 36

## **DAUN SINDROMLI BOLALAR**

**Zayniddinova Mohinur Sharofiddinovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>*Xalqaro Nordik universiteti  
Maxsus pedagogika(logopediya)  
1-kurs 1-MP-23 guruh talabasi  
[mohinur.zayniddinov@gmail.com](mailto:mohinur.zayniddinov@gmail.com)*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>*Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya:** Trisomiya 21, xromosomaning uchinchi nusxasini hosil bo'lishi, kasallik belgilari va turlari, kelib chiqishiga asosiy omil, dunyo bo'yicha ushbu kasallikkha ega bolalar statistikasi, daun sindromli bolalar bilan ishlash uchun maxsus muolajalar, kasallikni bartaraf etish